



## ESKI O'ZBEK YOZUVIDAGI ASARLARNING MADANIY VA TARIXIY AHAMIYATI

**Sharipova Parizod Quvvatjon qizi**

BuxDU, Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

**Rahmatova Ferangiz G'ayatjon qizi**

BuxDU, Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

**Umarov Baxtishod Bahriiddin o'g'li**

Ilmiy rahbar, BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi

kafedrası o'qituvchisi, t.f.f.d.(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19510011>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 09-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 11-aprel 2026 yil

### KEY WORDS

*Eski o'zbek yozuvi, tarixiy manbalar, yozma manbalar, chig'atoy tili, ma'rifatparvar, darslik, tadqiqot, ilmiy meros, davr.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada eski o'zbek yozuvida yozilgan tarixiy manbalarning o'rganilishi tahlil qilinadi. O'rta asrlar va yangi davr boshlarida yaratilgan tarixiy asarlar, va hujjatli manbalar tarixiy tadqiqotlar uchun muhim ma'lumotlar bazasi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida eski o'zbek yozuvida yozilgan asarlarning mazmuni, ularning yaratilish sharoiti, mualliflik xususiyatlari hamda tarixiy ishonchlilik darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu manbalarning tarixni o'rganishdagi ahamiyati, ularni tasniflash, ilmiy muomalaga kiritish hamda zamonaviy tadqiqotlarda qo'llash masalalari yoritiladi. Eski o'zbek yozuvida yaratilgan manbalar tahlili jarayonida tarixiy manbalar nafaqat siyosiy tarixni, balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda ham muhim ilmiy manba ekanligi asoslab beriladi.*

Tarixiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishida yozma manbalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, eski o'zbek yozuvi asosida yaratilgan qo'lyozma asarlar, tarixiy solnomalar hamda rasmiy hujjatlar Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yozuv tizimi orqali yaratilgan manbalar o'z davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini aks ettiruvchi boy va ko'p qirrali ma'lumotlar majmuasini tashkil etadi.

Eski o'zbek yozuvi uzoq vaqt davomida o'zbek xalqining yozma madaniyatida yetakchi o'rin egallab, tarixiy tafakkur va ilmiy an'analar rivojida muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Bu yozuvda bitilgan manbalar turli davrlarning ijtimoiy siyosiy hayotini, boshqaruv tizimini hamda madaniy muhitini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, eski o'zbek yozuvi asosidagi manbalarni kompleks tarzda o'rganish, ularni ilmiy tasniflash va tarixiy tadqiqotlarda samarali qo'llash zamonaviy manbashunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqotda eski o'zbek yozuvi alifbosida yaratilgan qator muhim yozma manbalar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, Ahmad Yassaviyning "Devoni Hikmat" asari, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq", Alisher Navoiyning ilk devonlari, shuningdek, Xoja Abdulloh Ansoriyga nisbat beriladigan

“Alifbo” va Mavlono Atoiyning “Devon” asarlari manbashunoslik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Mazkur asarlar eski o‘zbek yozuvi asosida yaratilgan bo‘lib, ularning tahlili orqali nafaqat adabiy meros, balki o‘z davrining ijtimoiy siyosiy va madaniy muhitini aks ettiruvchi muhim jihatlar ham ochib beriladi. Shu jihatdan, ushbu manbalar eski o‘zbek yozuvi tizimining amaliy qo‘llanilishi hamda uning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda eski o‘zbek yozuvida yaratilgan asarlar asosida o‘rganilib tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalari.** Ushbu tadqiqot natijalarini bayon etishda eski o‘zbek yozuvida yaratilgan tarixiy manbalar tahlili alohida ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, tarixiy voqealarni ilmiy o‘rganishda yozma manbalar muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Eski o‘zbek yozuvida bitilgan asarlar, qo‘lyozmalar va hujjatlar o‘z davrining ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini aks ettiruvchi asosiy tarixiy dalillarni o‘zida mujassam etadi. Shu bois, tadqiqot jarayonida ushbu manbalarning mazmuni, yaratilish muhiti hamda tarixiy ahamiyatini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Turkiy xalqlar tarixda yuksak shon-shuhratga va munosib ma‘naviy yetuklikka erishgan ulug‘ allomalari bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Ana shunday buyuk siymolardan biri, tasavvuf ta‘limotining yirik namoyandasi, mashhur tariqat asoschisi va shoir, Ahmad Yassaviy hisoblanadi. Alisher Navoiy ta‘biri bilan aytganda, u “Turkiston mulkining Shayx ul-mashoyixi”dir. Uning mashhur asari chig‘atoy tilida yozilgan «Devoni Hikmat»dir [1].

«Devoni Hikmat» asari yassaviya tariqatida alohida o‘rin tutadi. Chunki Ahmad Yassaviy turkiy xalqlarni islom diniga yanada yaqinlashtirish hamda tasavvufiy g‘oyalarini keng omma ongiga singdirish maqsadida she‘riyatdan samarali foydalangan. Shu bois u o‘z hikmatlarini she‘riy shaklda ifodalab, ularni jamlash natijasida «Hikmat» devoni yuzaga kelgan. Ushbu asarda ilohiy ishq, haqiqiy oshiqlik, ma‘rifat va oriflik, fanodan baqoga yetishish kabi tushunchalar sodda va xalqchil tilda bayon etilgan bo‘lib, bu uning keng omma orasida mashhur bo‘lishiga xizmat qilgan [1]. «Devoni Hikmat» asari 1912 yilda Imperator universiteti bosmaxonasida eski o‘zbek tilida nashr qilingan [2].

Shuningdek, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri, atoqli shoir, pedagog va jamoat arbobi Abdulla Avloniy ham o‘z ijodida milliy o‘zlik, tarbiya va ma‘rifat masalalariga alohida e‘tibor qaratgan. U millatni ilmi, ma‘naviyatli va barkamol etib tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Uning mashhur asarlaridan biri «Turkiy Guliston yoxud axloq» bo‘lib, unda asosan tarbiya, axloqiy qarashlar, insonning ichki dunyosi hamda ma‘naviy kamolot masalalari yoritilgan [3].

Mazkur asarda Abdulla Avloniy shaxsning axloqiy sifatleri faqat tashqi xulq-atvor bilan emas, balki uning aqliy va ruhiy kamoloti bilan baholanishi lozimligini ta‘kidlaydi. Jumladan, u shunday deydi: “Ammo nafsning surati ko‘zga ko‘rinmaydurgan, aql ila o‘lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur” [5]. Ushbu fikr insonning fazilatleri va ruhiy holatini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda xulq-atvor faqat tashqi ko‘rinish bilan emas, balki ichki ruhiy daraja bilan belgilanishini ko‘rsatadi [4].

«Turkiy Guliston yoxud axloq» asari bir necha qismlardan iborat bo‘lib, har bir qismda muayyan axloqiy masalalar yoritiladi. Asarda odob-axloq qoidalari, milliy qadriyatlar, tarbiya

hamda ilm-ma'rifat masalalari yetakchi o'rin egallaydi. Muallif asarni sodda va tushunarli tilda bayon etgan. Ushbu asar 1917 yilda Toshkentda "Sotsial-revolutsionerlar partiyasi" tipografiyasida eski o'zbek tilida nashr etilgan [5].

Eski o'zbek yozuvida yaratilgan asarlardan yana biri «Alif» bo'lib, mazkur asar haqidagi ma'lumotlar asosan o'quv qo'llanmalari va tarixiy darsliklar orqali aniqlanadi. 1910 yilda nashr etilgan ushbu asar savod chiqarishga mo'ljallangan darslik sifatida yaratilgan. Mazkur davrda jadidchilik harakati vakillari yangi usul maktablari uchun shu nom bilan ataluvchi qo'llanmalarni keng miqyosda yaratganlar [6].

Ushbu asar jadidlar tomonidan yangi usul maktablari uchun savod o'rgatuvchi darslik sifatida ishlab chiqilgan. Tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, bu davr Turkiston ta'lim tizimini isloh qilish zarurati kuchaygan bosqich bo'lib, qator ma'rifatparvarlar «Alif» yoki «Alifbe» nomlari ostida o'quv qo'llanmalarini nashr etganlar. Tahlil qilingan «Alif» o'quv qo'llanmasi Toshkentdagi Gudam Hasan Arifjonovning bug' bilan ishlaydigan litografiya bosmaxonasida eski o'zbek yozuvida chop etilgan [6].

G'azal mulkning sultoni va buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning «Ilk devon»i shoir muxlislari tomonidan tuzilgan. Ushbu devonga 391 g'azal, 41 ruboiy, 1 mustazod va 1 muhammas, jami 434 ta she'r kiritilgan bo'lib, unda shoirning yoshlik davriga oid ijodi jamlangan. Mazkur qo'lyozmani Hamid Sulaymon topib, u haqida muhim ilmiy ma'lumotlar bergan. Uning ta'kidlashicha, qo'lyozma yirik klassik nasta'liq xatida, Xurosonning yuqori sifatli ipak qog'oziga qora siyoh bilan bitilgan. Kitob hoshiyalari qalinroq qog'ozdan ishlanib, turli ranglar bilan gul va barg naqshlari bilan bezatilgan, shuningdek, naqshlar orasida hayvonlar va qushlar tasvirlari ham uchraydi [7].

Hozirgi kunda ushbu qo'lyozmaning ikki nusxasi mavjud. Birinchi nusxa Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasining Sharq bo'limida saqlanadi. Qo'lyozma Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, u Hirot xattotlik maktabining yetakchi namoyandalardan biri va nasta'liq xatining ustasi hisoblanadi. Ikkinchi nusxa Mahmud kotib tomonidan ko'chirilgan bo'lib, hozirda Qozon davlat universiteti ilmiy kutubxonasida saqlanadi [7]. Shuningdek, ushbu asar 1968 yilda Toshkentda O'zbekiston SSR «Fan» nashriyotida eski o'zbek yozuvida nashr etilgan [8].

O'zbek xalqining eng mashhur epik asarlaridan biri «Alpomish» dostoni hisoblanadi. Ushbu asar jahon epik merosi doirasida alohida o'rin tutadi. Doston qadim zamonlarda shakllanib, asrlar davomida baxshilar tomonidan og'zaki ravishda kuylanib kelgan va shu tarzda bizgacha yetib kelgan [9]. Uning eng qadimgi qatlamlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi va turkiy xalqlarning ijtimoiy hayoti hamda tarixiy jarayonlarini aks ettiradi.

Dostonning og'zaki shakllari IX-X asrlarda shakllangan bo'lsa-da, uning syujet asoslari yanada qadimgi davrlarga mansub. «Alpomish» dostoni variantlarini yozib olish ishlari 1922 yildan boshlab amalga oshirilgan. Qo'lyozma nusxalar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti folklor arxivida saqlanadi. Ushbu nusxalar orasida Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan variant eng mukammal hisoblanadi. «Alpomish» dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, sadoqat va oila mustahkamligi g'oyalarini tarannum etuvchi yirik epik asar bo'lib, badiiy jihatdan mukammal namunadir. Ushbu doston 1929 yilda Toshkentda o'n ming nusxada eski o'zbek yozuvida nashr etilgan [9].

Savod o'rgatuvchi vosita bo'lish bilan birga muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan «Alifbo» asari Xoja Abdulloh Ansoriy nomi bilan bog'lanadi. Mazkur asar tarkiban arab alifbosi

harflari asosida tuzilgan bo'lib, har bir harf bilan boshlanuvchi she'riy parchalar, nasihatlar va hikmatli so'zlarni o'z ichiga oladi. Ushbu darslik o'z davrida maktab va madrasalarda bolalarga savod o'rgatish bilan bir qatorda, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishga xizmat qilgan. Asar 1924 yilda Toshkentda O'rta Osiyo Davlat nashriyoti tomonidan eski o'zbek yozuvida nashr etilgan [10].

O'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Mavlono Atoiy bo'lib, u o'ziga xos badiiy uslubi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» hamda «Nasoim ul-muhabbat» asarlarida Atoiyini Ismoil ota avlodiga mansub ekanini qayd etadi. Atoiy Mirzo Ulug'bek saroyida faoliyat yuritgan shoirlardan biri bo'lib, uning she'rlari turkiy til vakillari orasida keng mashhurlikka erishgan [11].

Shoirning bizgacha yetib kelgan yagona devoni XVI asrga mansub bo'lib, hozirda Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanadi. Devon asosan g'azallardan iborat bo'lib, unda sevgi, insoniy go'zallik va tabiat tasviri yetakchi o'rin egallaydi. Atoiy she'riyati hayotiylik va badiiy samimiylik bilan ajralib turadi [11]. Shuningdek, ushbu asarning 1818 yilda eski o'zbek yozuvida ko'chirilgan nusxasi mavjud [12].

Manbalar tarixiy ahamiyatini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, eski o'zbek yozuvida yaratilgan yozma manbalar faqat siyosiy tarixni aks ettirish bilan cheklanmaydi. Ular ijtimoiy hayot, iqtisodiy munosabatlar, ma'naviy taraqqiyot hamda ilm-fan rivojiga oid muhim ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, ushbu manbalardan ilmiy asosda foydalanish va ularni zamonaviy talablarga muvofiq tarjima qilish tarixiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eski o'zbek yozuvida yaratilgan yozma manbalar xalqning boy madaniy merosi va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarlar orqali jamiyatning ma'naviy qadriyatlari, ta'lim tizimi, axloqiy qarashlari hamda ijtimoiy hayotiga oid muhim jihatlar yoritiladi.

Tahlil qilingan manbalar eski o'zbek yozuvinin nafaqat yozuv tizimi sifatida, balki madaniy merosni saqlash va avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo'lganini ko'rsatadi. Shu jihatdan, ushbu manbalarni o'rganish tarixiy bilimlarni boyitish bilan birga, milliy madaniyatni anglash va tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, eski o'zbek yozuvi asosidagi yozma merosni tizimli va kompleks tadqiq etish nafaqat tarixshunoslikni yangi ilmiy xulosalar bilan boyitadi, balki madaniy merosni saqlash va uni zamonaviy ilmiy muomalaga kiritishda muhim nazariy hamda amaliy asos yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshqulova Sh. Ahmad Yassaviy, ustoz Arslon Bob va yassaviylikda «Devoni hikmat»ning o'rni // Oriental Art and Culture. – 2020. – № 2(1).
2. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Qozon, 1912.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – B.10.
4. Abdulla Avloniy // Jadidlar. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917. – B.12.
6. Alif. – Toshkent, 1910.
7. Jumaboyeva H. Alisher Navoiyning «Ilk devon»iga tavsif // Worldly Knowledge International Journal of Scientific Researchers. 2024. – Vol. 5, Issue 1.
8. Alisher Navoiy. Ilk devon. – Toshkent, 1968.

9. Alpomish. – Toshkent, 1929.; Alpomish: o‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent, 1998.
10. Xoja Abdulloh Ansoriy. Alifbo. – Toshkent, 1924.
11. Ziyoz elektron kutubxonasi: <https://n.ziyouz.com>
12. Mavlono Atoiy. Devon. – Osiyo muzeyi qo‘lyozmasi. – 1818.

